

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.No‘monzoda	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	331
F.A.Hamdamiyova	
Bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarini o‘quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni	334
M.A.Nishonov	
Yangi O‘zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi	338
A.A.Meliqo‘ziyev	
Bo‘lajak pedagoglarda hisobdorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta‘limiy asoslari	343
S.S.Asatov	
Yangi O‘zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining zamonaviy ahamiyati	346
D.Q.Majidova	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta‘limoti	351
S.R.Qutlimuratov	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo‘lgan munosabati	355
N.U.Jamalova	
Globallashuv jarayonida ta‘limning o‘zgarishi va gumanitar fanlarning o‘rni	360
M.A.Matmusayeva	
O‘yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi	365
B.B.Xaitbayeva	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish	368
F.A.Ibroximov	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati	374
R.B.Tursunov	
O‘quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish	379
D.B.Toshaliyev	
Oliy ta‘lim talabalarini ma‘naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari	383
U.Xolova	
Falsafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma‘rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma‘rifat va ma‘rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida)	386
S.E.Baymuradova	
Geografiya fanini masofaviy o‘qitishda mobil ta‘lim texnologiyalarining imkoniyatlari	390
B.M.Qandov	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o‘rni	394
A.M.To‘rayev	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo‘lg‘usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishdagi muhim omil sifatida	400
A.A.Meliqo‘ziyev	
Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	404
J.Sh.Mamayusupov	
Falsafa fanlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari	408
Y.S.Sidiqova	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida	413
B.X.Karimov	
Ilk uyg‘onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivoidagi o‘rni	418
Y.M.Namozova	
Ta‘lim va insonparvarlikka asoslangan “Taraqqiyot strategiyasi” jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida	423



UO'K: 94(575.1)

XORAZM JADIDLARINING ILM-FANGA BO'LGAN MUNOSABATI**ОТНОШЕНИЕ ХОРЕЗМСКИХ ДЖАДИДОВ К НАУКЕ****THE ATTITUDE OF THE KHOREZM JADIDS TOWARDS SCIENCE****Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich** 

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Аннотация

Mazkur maqolada Xiva jadidlari ma'rifiy ishlar bilan shug'ullanganliklari hamda Yangi usul maktablariga dars berish uchun kelgan jadid ziyolilari bu harakat (jadidchilik)ning otasi Ismoilbek Gasprali g'oyalarini Xorazm xalqi orasiga yoyish uchun fidoyilik ko'rsatib ishlaganliklari tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается участие хивинских джадидов в просветительской деятельности и то, как джадидские интеллигенты, пришедшие преподавать в школы нового метода, проявили преданность в распространении идей Исмаилбека Гаспринского, отца движения джадид, среди народа Хорезма.

Abstract

This article analyzes the involvement of the Khiva Jadids in educational activities and how the Jadid intellectuals who came to teach in the New Method schools demonstrated dedication in spreading the ideas of Ismailbek Gasprinskiy, the father of the Jadid movement, among the people of Khorezm.

Kalit so'zlar: Xorazm jadidlari, jadidchilik harakati, ma'rifat, madaniyat, ma'naviyat, qadriyat, ilm-fan, adob-axloq.

Ключевые слова: хорезмские джади́ды, движение джадид, просвещение, культура, духовность, ценности, наука, этика.

Key words: Khorezm Jadids, Jadid movement, enlightenment, culture, spirituality, values, science, ethics.

KIRISH

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: *jadīd* - yangi) – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi.

Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan.

Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka "burjua-liberal, millatchilik harakati" deb ta'rif berilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSR parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

20-asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o'ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o'ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo'ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o'ng oqimi o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Xivada jadidchilikning soʻl oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan boʻlib, qozikalon Bobooxun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini oʻstirish maqsadini qoʻyishgan edi. 1904-yil „jamiyati xayriya“ tuzilib, uning koʻmagi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi (1904-yil 10-noyabrda). Xiva jadidlari maʼrifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari boʻlmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustda u partiya shaklini olgan.

XIX asrning oxiri va XX asrning birinchi choragida yuz bergan milliy uygʻonish davri XVIII asrda Yevropada keng quloch yoygan maʼrifatchilik harakatiga oʻxshash boʻlsa-da, biz uni bevosita Yevropadagi turli siyosiy oʻzgarishlar taʼsirida yuzaga keldi deya olmaymiz. U dumtoz adabiyotga, koʻp jihatdan Navoiy anʼanalariga bogʻlangan maʼrifatparvarlik adabiyoti, soʻng milliy uygʻonish kayfiyatidagi tatar, turk, ozar adabiyotlari taʼsirida shakllandi. Ayni jihatiga koʻra jadidchilik oʻz maʼnaviy ildizlariga ega edi”.

Ayniqsa, davlatchilik boshqaruvi, milliy anʼanalari, adabiyoti, folklori, falsafasi, yetishib chiqqan allomalari bilan dunyo tamaddunida oʻz nufuziga ega boʻlgan turkiy xalqlar hayotida, afsuski soʻnggi asrlarda roʻy bergan tanazzul, ular yashagan hududlarni mustamlakaga aylantirgandi.

Ana shunday vaziyatda, tanazzuldan chiqish, harbiy qudrat va davlatchilikni qayta tiklash uchun tayanadigan eng birinchi darajali qadam-taʼlimdan boshlanishi XIX asrning oxirlariga kelib millat oydinlariga ayon boʻlgandi.

Radikalizm, fanatizmdan voz kechish orqali taʼlimni taraqqiyotga yuksaltirish va buning natijasida mustamlakachilikka qarshi kurashni yuzaga keltirish ayni davr zaruratiga aylangandi.

Tarixdagi real vaziyatdan kelib chiqib, haqiqat nuqtayi nazaridan eʼtirof etish joizki, bu borada xorijdan, biroq qardosh turk xalqi oydinlarining taʼsir kuchi ham boʻlgan. Yaʼni jadidchilik harakati va bu jarayon turkiy musulmon xalqlarni zamonaviy dunyo tamadduni, maʼrifati, ilgʻor ilmiy salohiyati darajasiga koʻtarish gʻoyasi bilan sugʻorilgan va bunga Usmoniylarning turkiy dunyodagi oʻrni, nufuzi ham taʼsir qilgandi. Chindan ham, Oʻrta Osiyo xalqlari ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida burilish boʻlgan jarayon, faqatgina Qrimdagi Ismoil Gasprali taʼlimoti bilangina emas, Usmoniylar saltanatidagi “Yosh turklar”ning islohotchilik faoliyatlari taʼsiri ostida ham burilish bosqichi boʻldi.

Tarixdagi real faktlardan biri shuki, aynan “Yosh turklar”ning taʼsirini shundan ham sezish mumkinki, Oʻrta Osiyodagi jadidlar “Yosh buxoroliklar”, “Yosh xivaliklar” nomi bilan oʻzlarining siyosiy harakatini atagandilar. Vaholanki, bu safdagi taraqqiyparvarlarning koʻpchiligi oʻrta yoshdagi shaxslar boʻlishgan. Masalan, Xorazmdan misol keltiradigan boʻlsak, Polvonniyozhoji Yusupov 1914 yilda “Yosh xivaliklar” harakatiga asos solingan davrda 53 yosh, Bobooxun Salimov 37, Xudoybergan Devonov 35, Nazir Sholikorov 33 yoshda boʻlishgan. Ana shu misollardan ham bilsa boʻladiki, taʼlimdan boshlangan jarayonning siyosiy harakat, kuch sifatida siyosiy maydonga kelishida “Yosh turklar”dan taʼsirlanish yuqori boʻlgan.

Shu tarzda, taʼlim sohasidan boshlangan hamda ijtimoiy, siyosiy, maʼrifiy harakat sifatida jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olgan va Milliy Uygʻonishga asos solgan jadidchilik 1880 yillarida Rossiya musulmonlari, xususan Kavkaz va Volga boʻyida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakati sifatida paydo boʻldi. Bunda Qrimlik Ismoil Gasprali asos solgan “Usuli jadid” maktablari va “Tarjimon” gazetasi katta rol oʻynadi va harakatga asos boʻlib xizmat qildi hamda uning gʻoyalari Turkiston, Buxoro amirligi, Xiva xonligiga ham shiddat bilan kirib keldi.

Tabiiyki har qanday yangilik, taraqqiyparvarlik gʻoyalari hali nazariya paytidan boshlab har bir davrda toʻsqinliklarga uchragan va bunga tarixdan koʻplab misollar keltirish mumkin. Shu tarzda jadidchilik harakati paydo boʻlganidan boshlab shakllanishi, rivojlanishi davridan nafaqat Turkistonda, balki Qrimning oʻzida, Ismoil Gaspraliga nisbatan ham konservativ kuchlar, mustamlakachilar tomonidan turli toʻsiq qoʻyilgan holda, qarshiliklar qilingandi.

Yangi usul maktablariga dars berish uchun kelgan jadid ziyolilari bu harakat (jadidchilik)ning otasi Ismoilbek Gasprali gʻoyalarini Xorazm xalqi orasiga yoyish uchun fidoyilik koʻrsatib ishladilar. Ular oʻzaro urushlar, Rossiya mustamlakachiligi siyosati natijasida istibdodga, maʼnaviy inqirozga yuz tutgan musulmon xalqlari xonadonlariga maʼrifat chirogʻini yoqdilar. Tinch yoʻl bilan, maʼrifat va madaniyat orqali tuzumni oʻzgartirish, mustamlakachilik sirtmogʻidan qutulib, ozodlik-istiqlolga

erishishni targ'ib qilgan bu ziyolilarning yana bir xizmati ular Rossiyaning turli shaharlari va boshqa joylar (Eron, Afg'oniston, Hindiston, Usmoniylar saltanati, arab mamlakatlari) da chiqarayotgan "Vaqt", "Ittihod", "Tarjimon", "Yulduz" gazetalari, va boshqa nashrlar, hamda ko'pgina ijtimoiy siyosiy adabiyotlarni xonlik hududida tarqatib, yerli aholining, xususan ziyolilar siyosiy ongining uyg'onishiga, dunyoda yuz berayotgan voqealardan boxabar bo'lishlariga imkon yaratdilar.

Xiva xonligida jadidchilik harakatining shakllanishiga zavod va fabrikalarda, bank va kompaniyalarda, armiyada xizmat vazifalarini bajarish yoki surgun muddatlarini o'tash uchun kelgan savodli, demokratik kayfiyatdagi kishilar va ularning mahalliy aholi bilan aloqasi ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi".

Ya'ni, Ismoil Gaspralining Qrimdan, ta'lim sohasidan boshlangan jadidchilik harakati boshqa turkiy musulmon o'lkalarda bo'lgani singari, Xorazmga ham kirib keldi. Tabiiyki, jadidchilik g'oyalariga Xiva xoni Feruxxon, valiahd Asfandiyorxon, qozikalon Salimoxun, Mamat mahram, bosh vazir Islomxo'ja singari davlat arboblarning hayrihohligi, moyilligi bois Xiva, Yangi Urganch va boshqa hududlarda jadid maktablari tashkil topa boshladi.

Bora-bora ta'limdan boshlagan harakat boshqa hududlardagi singari ma'rifiy harakat, so'ngra esa ijtimoiy, keyin bo'lsa siyosiy harakat, partiya – "Yosh xivaliklar" tashkilotining vujudga kelishi va mustamlakachilikka qarshi, davlatchilikni isloh qilishdek siyosiy kurash markaziga aylanishiga sababchi bo'ldi.

Matbuotning tarixni o'rganishdagi ahamiyati katta bo'lib, boshqa manbalar-qo'lyozma asarlar, arxiv hujjatlari, memuarlar bilan qiyosiy taqqoslash, tadqiq qilish orqali o'tmishda bo'lgan jarayonlarni xolis, haqqoniy tasvirlashga imkon yaratadi. Qolaversa matbuot nashr etilgan davr manzarasini oradan yillar, asrlar o'tib ham o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol namoyon qiluvchi ko'zgudir.

Aynan shu boisdan ham turkiy musulmon xalqlarda milliy uyg'onishni yuzaga keltirgan jadidchilik harakatining "Tarjimon" gazetasi ham g'oyat katta ahamiyatga ega.

Dastlab maktab sohasini isloh qilish orqali boshlangan jadidchilik vaqt o'tib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oldi va o'sha davrdagi real vaziyatda o'z g'oyalarini targ'ib qilish, ommalashtirish va turkiy xalqlarni jipslashtirishda matbuot, xususan "Tarjimon" nashri vositachi, umid ko'prigi vazifasini bajargan edi. Aynan ana shunday mas'uliyatli vazifani "Tarjimon" gazetasi to'laqonli bajarib o'zining tarix, turkiy xalqlar oldidagi missiyasini bajardi va bu boradagi dastlabki nashr bo'ldi. Ana shunday ezgulik vositachisi bo'lgan jadidlar lideri Ismoil Gaspralining taraqqiyparvarlik g'oyalari ruhida "Tarjimon" gazetasi 1883-yil 10-apreldan Qrimning Bog'chasaroy shahrida chop etila boshlaydi.

"Tarjimon" gazetasi chiqa boshlaganidan to 20 yil davomida Rossiya imperiyasidagi yagona musulmon matbuoti-erku hurriyat kuychisi bo'lib qoldi. Bu davr mobaynida gazeta haftasiga 1-2 marta kichik hajmda nashr bo'ldi. Lekin bu kichik gazetaning turkiy millatlarga ko'rsatgan ta'siri katta edi. "Tarjimon"ning ta'siri ostida Rossiya imperiyasining turli hududlarida musulmonlar tarafidan ko'p sonli yangi maktablar ochildi, ko'plab xayriya jamiyatlari tashkil etildi, va hattoki yangicha ruhda jadid adabiyoti shakllandi.

Bosh muharrir Ismoil Gasprali katta hayotiy tajriba va yetuk ilmiy salohiyatga ega juda mohir so'z ustasi edi. U gazetadagi maqolalarni nashrga tayyorlashda o'quvchiga mavzudagi mohiyat tez, oson yetib borishi uchun, jummalarni sodda, qisqa va lo'nda ifodalovchi uslub qo'lladi. Natijada barcha turkiy xalqlarning turli tabaqalari ham tushunadigan "Tarjimon"ning o'rta umumiy turk tilini yaratdi.

O'z davrida qanchalik turkiy xalqlarning amirlari, xonlari bo'lishiga qaramay, dunyoda e'tirof etilgan turkiy xalqlar lideri aynan Ismoil Gasprali edi. U yetuk adib sifatida butun turkiy millatlarni "Tarjimon"ning yagona adabiy tili ostida birlashtirishni orzu qildi. Buning uchun umrining oxiri-1914 yilga qadar "Tilda, fikrda, ishda birlik" shiori ostida asorat, mustamlaka holga tushib qolgan turkiylarni tanazzuldan chiqarish uchun kurashdi. Professor Begali Qosimov yozganidek, "Ismoil Gasprali targ'ib qilgan til o'z vaqtida Qrimda, Istanbulda, Toshkent va Bokuda ham birdek tushunarli edi". Ya'ni "Tarjimon"ni dashtdagi qozog'u, cho'l sahro atrofida Buxoroliku Xorazmlik, turkman ham, Qozonlik tataru Edil, Volga bo'ylaridagi boshqirdu no'g'ay, O'rta Osiyodagi qirg'iz ham bemalol tushunar, maqolalar mohiyatidagi ozodlik shabadalarini anglashga urinardi.

Ana shunday vaziyatda “Tarjimon” faqat Qrim, Volgabo‘yi, Kavkazdagi musulmonlar uchungina emas, Turkiston ahli, shuningdek Buxoro amirligi va Xiva xonligi aholisi uchun ham milliy ruhda, ziyoli qatlam sevib mutoalla qiladigan, mushohada yuritadigan gazetaga aylandi.

“Professor Zaynobiddin Abdirashidovning tadqiqotiga ko‘ra, “ “Tarjimon” gazetasi turkistonda “yangi adabiyot”, “adabiy til” va nihoyat ularni targ‘ib etadigan vaqtli matbuotning shakllanishida juda katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan olib qaraganda, bu gazeta zamonaviy o‘zbek adabiyotining shakllanish o‘zaklarini tadqiq etish va o‘rganishda asosiy manbalardan biri sifatida muhim o‘rin tutadi. “Tarjimon” gazetasi Turkiston o‘lkasining geografiasidan tortib undagi mavjud siyosiy tuzumlar, uning o‘tmishidan tortib yangi tarixigacha, urf-odatidan tortib tiligacha qiziqdi va bu mavzularda salmoqli va hozirgi ilm-fan uchun yangi faktlar bera oladigan materiallarni qildi.

“Tarjimon”ning g‘oyalari sabab vaqt o‘tib Turkistonning turli hududlarida “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Oyina”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Hurriyat”, “Najot”, “Turon”, “El bayrog‘i” singari jadid taraqqiyparvarlari tomonidan ko‘plab gazetalar chop etilib, ularda ham millat dardi, jamiyatni isloh qilish istagi, muammolarga yechim sifatidagi takliflar yoritilgan mavzular nashr qilindi. Natijada professor Begali Qosimov tadqiq qilganidek, “jadidchilik oqim emas, harakat. Ijtimoiy, harakat” darajasiga yetdi.

1) siyosiy, ma‘rifiy jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi;

2) mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g‘ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko‘rgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi;

3) maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi”.

Aynan ana shu maqsadlarga erishishda matbuot, xususan “Tarjimon” va boshqa jadid gazetalar katta rol o‘ynadi va vaqt o‘tib bugungi kunda tariximizni o‘rganishda eng ahamiyatli, taqqoslab o‘rganuvchi manbaga aylandi.

Qrimda yashab faoliyat ko‘rsatgan va dunyoning ko‘plab davlatlariga safarlar qilgan jadidlar lideri va “Tarjimon” asoschisi Ismoil Gasprali tabiiyki Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi vaziyat bilan tanishib bordi. Negaki, “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori ostida faoliyat ko‘rsatgan Gasprali turkiy dunyoning katta bir hududi va dunyo sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘shgan o‘lkaga istiqbolli mintaqa sifatida qaragan.

Ma‘lumki, Xorazm tarixining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi davrini o‘rganish, tadqiq qilish, qiyoslashda Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”, Polvonniyozhoji Yusupovning xotiralari, shuningdek o‘sha davrdagi ijtimoiy va adabiy jarayon, bundan tashqari Feruzxon va Asfandiyorxon saroyidagi muhit manzarasini teran anglashda Bobojon Tarrohnning “Xorazm navozandalari”, Laffasiyning “Tazkirai shuaro” asarlari muhim o‘rin tutadi.

Yoki XX asr boshlaridan jadidlarning yetuk namoyandasi Xudoybergan Devonov ham o‘z fotosuratlarini, kinolavhalari bilan Ogahiy va Bayoniylarning muarrixligini kinotasmaga muhlradi. Biroq “Tarjimon” gazetasidagi Xiva xonligiga oid yoritilgan maqolalar, lavhalar aynan yuqoridagi asarlarda .kinotasmalarda yo‘q ma‘lumotlardan, shu paytgacha hattoki tarixchilar ham bilmaydigan noyob voqelik, jarayonlardan iborat. Shu bois ham “Tarjimon” gazetasining Xorazm tarixini o‘rganishdagi ahamiyati kattadir.

Gazetada chop etilib borgan Xiva xonligi bilan bog‘liq ko‘plab maqola, xabar va lavhalarda Xorazm va xorazmliklarga oid ko‘plab mavzular yoritilgan. Tabiiyki, Qrimda yashayotgan, ammo ikki bora Turkiston va Buxoroda bo‘lgan Gasprali vohadagi vaziyatni Rossiyaning turli hududlarida chop etilgan, shuningdek “Turkestanskije vedomosti”, “Turkiston viloyatining gazetasi”dagi materiallar orqali kuzatib borgan. Vaqt o‘tib esa bevosita Xorazmdan ham maxsus “Tarjimon” gazetasiga maqola, xabar yozadigan muxbirlar yetishib chiqdi. Shulardan biri Xorazmdagi jadid maktabida o‘qituvchilik qilgan Ramazon Saydashev edi. Natijada “Tarjimon” gazetasida yuqoridagi nashrlar va Ramazon Saydashevning maqola, xabarlarini orqali Xorazmga bog‘liq ko‘plab maqolalar yoritildi. Gasprali ba‘zida Xorazmdagi jarayonlarga oid o‘zining tahliliy maqolalarini ham yoritib bordi. Bu borada Gasprali va Xiva xonligi bosh vaziri, taraqqiyparvar, islohotchi Islomxo‘ja o‘rtasidagi xat orqali fikrlashuvlar ham katta ahamiyat kasb etdi. Shulardan kelib chiqqan holda “Tarjimon” gazetasida Xorazm bilan bog‘liq holda yoritilgan mavzularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Xiva xoni va amaldorlari, valiahdining Rossiya imperiyasiga safari bilan bog'liq xabarlar;
2. Xon va amaldorlarining Turkiston, xususan Toshkentga tashrifiga oid lavhalar;
3. Xiva xonligidagi jadid maktablari holatiga oid xabarlar.
4. Xorazmdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyat to'g'risidagi maqola, xabarlar.
5. Jadidchilik harakati va vohada olib borilgan taraqqiyparvarlarning islohotlariga oid maqolalar tahlili.

Biroq, 1883-1917 yillarga oid "Tarjimon" gazetasidagi 150 dan ortiq maqolalar, xabarlar, lavhalarda shu davrda kechgan jarayonlar, voqeliklar yoritib o'tilganki, bu tariximizni o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, "Tarjimon"dagi maqolalar, xabarlar, lavhalar faqatgina Xorazmda faoliyat ko'rsatgan jadid maktabi o'qituvchisi Ramazon Saydashev va boshqalarning ma'lumotlariga asoslanib qolmasdan, Toshkent, Sankt Peterburg, Orenburg, Qozondagi nashrlar asosida ham tayyorlangan. Ba'zida esa shu va boshqa nashrlardagi maqolalar aynan ko'chirilib, ba'zida esa "Tarjimon" tahririyati tomonidan izohlar bilan chop etilgan.

XULOSA

"Turkiston viloyatining gazetasi", "Turkestanskije vedomosti", "Okraina", "Sankt Peterburgskie vedomosti" va boshqa nashrlardagi Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligiga oid maqolalar bevosita "Tarjimon"da chop qilinib turilgan. Ya'ni Gasprali ularni chop etish orqali turk dunyosini va O'rta Osiyodagi jarayonlar bilan tanishtirib turuvchi vositachi vazifasini ham bajargan.

Maqolalar sarlavhasi va mavzusidan ham ko'rinib turibdiki, ularning Xorazm tarixini o'rganishda ahamiyati beqiyos. Bu ma'lumotlarni Bayoniy, Bobojon Tarroh, Laffasiy, Polvonniyozhoji Yusupovning asarlaridan ham topib bo'lmaydi. Shu bois ushbu maqolalarni "Tarjimon" gazetasida Xorazmga oid maqola va lavhalar" nomi bilan kitob holida chop etish, shu bilan birga "Ismoil Gaspralining "Tarjimon" gazetasidagi maqolalar va ularning Xorazm tarixini o'rganishdagi ahamiyati" mavzusida ilmiy tadqiqot qilish zarurati bor.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ayniy S., Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, Moskva, 1926. –B. 82.
2. Risqulov Toshkent, Revolyusiya i korennoye naseleniye, Toshkent, 1926. –B. 271.
3. Ziyoy Sayd, O'zbek vaqtli matbuotiga oid materiallar (1870-1927), Toshkent, 1927. –B. 136.
4. Programmiye dokumenti musulmanskix politicheskix partiy (1917-1920), Oksford, 1985. –B. 98.
5. Revolyusiya v Sredney Azii glazami musulmanskix bolshevikov, Oksford, 1985. –B. 49.
6. Rajabova R. va boshqalar, O'zbekiston tarixi (1917-1993-yillar), Toshkent, 1994. –B. 214.
7. Xo'jayev F., Buxoro inqilobining tarixiga materiallar, Toshkent, 1997. –B. 42.
8. Validiy, Bo'linganni bo'ri yer (Xotiralar), Toshkent, 1997. –B. 85.
9. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998. –B. 211.
10. Shodiyev, J. J. (2023). The role of scientific thinking and mental development in improving human development and value. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 251-261.
11. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999. –B. 251.